

MAKTAB VA HAYOT

Ilmiy-metodik jurnal

HURMATLI HAMKASBLAR!

MAKTAB VA HAYOT

JURNALIGA 2023 YIL UCHUN OBUNA DAVOM ETMOQDA

2023 yilda “MAKTAB VA HAYOT” jurnalida (ilovasi bilan) turli ilmiy-metodik, didaktik, me’yoriy hamda axborot materiallari quyidagi ruknlarda nashr etiladi:

- Kasb-hunarga yo'naltirish nazariyasi va amaliyoti
- Ta'limda psixologik xizmat
- Amaliy psixologiya
- Oila psixologiyasi
- Defektologiya va tibbiy xizmat
- Inklyuziv ta'lim
- Axborot texnologiyalari
- Texnologiya
- Sog'lom avlod uchun
- Ota-onalar maktabi

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining qarori bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha ilmiy jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.

Obuna indeksi: 1019

Tahririyat telefonlari:
tel / faks: 8 (0371) 246-21-02
Web site: <http://www.tashxis.uz>
E-mail: maktabvahayot@sarkor.uz

BOSH MUHARRIR

Liliya Gaynutdinova

TAHRIR HAY'ATI

Hilola UMAROVA
G'ayrat SHOUMAROV
Risboy JO'RAYEV
Shaxnoza XALILOVA
Komola FARFIYEVA
Dilnozaxon ABDULLAJANOVA
Ayubxon RADJIYEV
Sharibboy ERGASHEV
Feruza QODIROVA

Mas'ul kotib

Sayyora Alimxodjayeva

Adabiy muharrir

Sayyora Alimxodjayeva

Kompyuterda sahifalovchi va dizayn

Ilmira Adilova

Muallifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarining uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqriz qilinmaydi.

Mualliflarning familiyasi, ismi, sharifi ularning pasportlari ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

Muassislar:

O'quvchilarni kasb-hunarga
yo'naltirish va
psixologik-pedagogik
respublika tashxis markazi
"MAKTAB VA HAYOT" M.CH.J.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda
"MAKTAB VA HAYOT" dan olindi,
deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2001 yildan
chiqa boshlagan.

MANZIL:

100095, Toshkent sh.,
Olmazor t., Ziyo ko'chasi, 6A uy.
Tel: (0371) 246-21-02

E-mail: maktabvahayot@sarkor.uz

OBUNA INDEKSI - 1019

MUNDARIJA

S.YU.KULATOVA.

O'smir yoshlarni axborot xurujlaridan asrashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 2

SH.F.SAGATOVA.

Alohida ehtiyojli farzandi bor ayollar psixologik farovonligining determinantlari 6

M.YU.AYUPOVA.

Motor alaliya – bu nutqning kechikishimi? 8

S.MO'MINOV, M.ABDUJABBOROVA.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun inkluziv ta'lim afzalliklari 11

SH.K.MAMAJONOVA.

O'smirda addiktiv xulqni shakllantiruvchi omil 12

X.MAXMUDOV, M.TOHIROVA.

Intellektual muammosi mavjud o'quvchilarda ijtimoiy-maishiy malakalarni shakllantirishning yo'nalishlari 15

D.R.BABAYEVA, D.A.G'AFFOROVA.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari 16

Z.O.JABBAROVA.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitob mutolaasiga bo'lgan qiziqishlarini oshirish 19

E.T.XUSANOV.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ekologik ta'lim samaradorligining konseptual asoslari 21

F.U.QODIROVA.

Adaptiv ta'limni tashkil etish orqali o'quv muhiti rentabelligini oshirish 22

A.U.XAITOV.

O'smir futbolchilarda irodaviy sifatlarni rivojlantirishning psixologik asoslari 25

A.A.RAXIMOV.

O'smir bokschilarda sport motivatsiyasini shakllantirishning psixologik xususiyatlari 27

I.T.NURBAYEVA.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida «portfolio» texnologiyasidan foydalanish 30

N.ERGASHEVA.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilariga fanlararo ekologik tarbiya berishning ahamiyati 31

H.X.BOTIROV.

Maktablar raqobatbardoshligini ta'minlashda raqamlashtirish va tijoratlashtirishning o'rni 34

G.O.NAJMIDDINOVA.

Билингвизм у дошкольников – как социально-коммуникативный процесс 37

G.III.SALOMOVA.

Модели принятия решений как научное понятие 39

I.II.PAXIMOVA.

Сущность и особенности социальной активности молодежи 41

M.M.NASIMDJANOVA.

Роль школы в развитии процесса инкультурации личности 42



madaniy muvofiqlik, insonparvarlashtirish, gumanitar, o'zaro to'ldirish, o'zgaruvchanlik, mintaqalashtirish;

– ekologik rivojlanish shakllari va usullarining o'quvchilar ijodiy faoliyatida ustunligi;

– ijtimoiy-tabiiy muhitning ekologik monitoringi;

– ekologik ta'limning yagona gumanitar muhitini yaratish.

Ushbu konseptual asoslar umumiy o'rta talim tizimi ekologik fan dasturlariga singdirilib, maktab o'quvchilari ongini boyitishga xizmat qilsa biz rivojlantirayotgan maktab ekologik ta'lim tizimi yana ham mazmunliroq ahamiyat kasb etib boradi [4].

Ta'lim tizimida biror bir g'oyani amalga oshirish ma'lum ma'noda pedagogik shartlar asosida amalga oshiriladi. Biz o'rganayotgan maktab o'quv jarayoni ham bundan mustasno emas. Shunday ekan ekologik ta'lim jarayonida o'quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirishga quyidagi pedagogik shartlar yordam beradi:

– “o'qituvchi-o'quvchi” tizimidagi sub'ekt-sub'ekt munosabatlarini tasdiqlash;

– eng yaqin ijtimoiy-tabiiy muhitni o'quv jarayonining tizimni tashkil etuvchi birligi sifatida qabul qilish;

– o'quv jarayonini kompleks ilmiy va uslubiy qo'llab-quvvatlash.

Ekologik ta'lim jarayonida, maktab faoliyatida o'quvchilar ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning xulosalari quyidagilar etib belgilandi:

– o'quvchilar ekologik madaniyatining mohiyati va tuzilishi ekologik ta'limda ustuvor bo'lgan tabiiy va madaniy muvofiqlik, insonparvarlik, gumanitar, o'zgaruvchanlik va mintaqalashtirish tamoyillariga asoslangan aksiologik, shaxsiy faoliyat va tizimli yondashuvlar nuqtai nazaridan belgilansa;

– maqsadlarni tuzish, ekologik ta'limning dasturlari mazmunini yaratish va tanlash yaxlitlik falsafasi, universal axloq va zamonaviy evolyuzionizmga asoslansa;

– pedagogik usullar, shakllar va texnologiyalarni takomillashtirish ekologik ta'limning ustuvor tamoyillari asosida amalga oshirilsa;

– ekologik ta'lim va o'quvchilarni tarbiyalash ijobiy shaxsiy tajriba, dunyoqarash munosabatlari, yagona gumanitar ta'lim muhiti sharoitida ekologik ahamiyatga ega vaziyatlarning oqilona rivojlanishi va hissiy tajribasi o'rtasidagi bog'liqlik jarayonida dunyoning tabiatga yo'naltirilgan manzarasini shakllantirishga qaratilsa;

– dizayn va ijodiy yo'nalishdagi pedagogik texnologiyalar tabiiy fanlar va gumanitar bilimlarning integratsiyasiga asoslansa;

– o'quvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirish ekologik ta'lim sifatini pedagogik monitoring qilish sharoitida amalga oshirilsa.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi. 20 Dekabr 2022 yil.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi “Ekologik ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 434-son qarori <https://lex.uz/docs/4354743>

3. Ziyomuhamedov B. „, Ekologiya va Manaviyat”. T., 1997.

4. Umumiy pedagogika: o'quv qo'llanma / Z. Axrorova va boshqalar. T., 2020.

ADAPTIV TA'LIMNI TASHKIL ETISH ORQALI O'QUV MUHITI RENTABELLIGINI OSHIRISH

F.U.Qodirova, Chirchiq davlat universiteti, Maxsus pedagogika kafedrasini mudiri, p.f.d. (DSc), dotsent

В данной статье описаны организационно-педагогические, психологические, гигиенические, эргономические аспекты оптимизации образовательной среды, организации ее с учетом потребностей и возможностей обучающихся и стилей обучения, а также даны рекомендации по проектированию информационного моделирования. Кроме того, раскрываются комплексные возможности и особенности приема кластерной адаптивной методологической системы, реализуемой на практике.

Ключевые слова понятия: образовательная среда, качество, эффективность, спрос, потребность, эксперимент-испытание, инновационный кластер педагогического образования, методология, рецептор, рентабельность, академический эффект, площадь.

This article describes the organizational and pedagogical, psychological, hygienic, ergonomic aspects of optimizing the educational environment, organizing it taking into account the needs and capabilities of students and learning styles, and also gives recommendations for designing information modeling. In addition, the complex possibilities and features of the reception of cluster adaptive methodological system implemented in practice are revealed.

Keywords and concepts: educational environment, quality, efficiency, demand, need, experiment-test, innovative cluster of education, methodology, receptor, profitability, academic effect, area.

Hozirgi kunda ilmiy jamoatchilik o'rtasida qattiq munozaralar kuchaygan davrda, olib borilayotgan tadqiqotlar mazmuni, qimmatini hamda qiymatini tahlil qilishning shaffof mexanizmlari dolzarb sanalmoqda.

Pedagogika sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining son jihatdan ham, sifat jihatdan ham imkoniyatlari kengaymoqda. Ilmiy tadqiqot ishi muayyan muammoning ma'lum qirrasini tajriba-sinov ishlari orqali



o'rganishni, natijalarga asoslangan holda amaliyotga aniq asoslar taqdim etish uchun xizmat qiladi.

Bugungi kunda pedagogikada olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida pedagoglarning ilmiy dunqarashi kengaymoqda, oliy ta'lim muassasasining ilmiy salohiyat darajasi va jahon ilmiy arenalariga kirib borish harakatlari ortmoqda.

Oliy ta'lim maktabgacha va umumta'lim muassasalariga kadr tayyorlar ekan, uning natijadorligi shu ta'lim tizimlaridagi ijobiy o'zgarishlarga impuls berishi lozimligi isbot talab qilmas haqiqatdir.

Maktabgacha ta'limda bolalarni maktab ta'limiga kompleks tayyorlash masalasi tadqiqning markaziy nuqtasi bo'lsa, maktabda o'quvchilarning fanlardan o'zlashtirish natijalarini oshirish, kasbga maqsadli yo'naltirish, ijtimoiy-hayotiy ko'nikmalar, sog'lom turmush tarzi, ona tili va qo'shimcha xorijiy til malaka (o'qish, yozish, tinglash, gapirish)larini rivojlantirish va boshqa pedagogik-psixologik-tashkiliy masalalar tadqiqot uchun tanlanadigan mavzularni o'ziga jamlaydi.

O'quv-tarbiyaviy jarayon samaradorligi-rentabelligini oshirish, global axborot jamiyatida ildamlangan o'qitishni va ma'lumot olish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashning eng optimal yo'llaridan bu - o'quv muhitini axborotlashtirish, qulaylashtirish va jozibadorlashtirishdir.

Shunday ekan, nima qilsa, ta'lim sifati oshadi, uning imkoniyatlari ta'lim oluvchilar ehtiyojlariga yo'naltiriladi? yoki ta'limning qaysi komponentida bo'shliq borki, uni zararsiz manfaatlar kesishuvida bartaraf etish mumkin? kabi savollar yechimiga bag'ishlangan tadqiqotlar zamonaviy pedagogikada ahamiyatli sanalmoqda. Aynan shu maqsadni ko'zlagan holda Chirchiq davlat universitetida "Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri" bosh ilmiy mavzu doirasida ***"O'quv muhiti rentabelligini oshirish va baholashning innovatsion-pedagogik instrumentlari"*** mavzusida tadqiqot olib borilmoqda.

Ta'lim jarayonida turli imkoniyatli, jumladan, imkoniyati cheklangan bolalar o'quv faoliyatini tashkil etishda metodik klasterning kompleks imkoniyatlari tadqiqotlarida (F.Qodirova, M.Sattorova, Sh.Matupayeva) o'rganilgan bo'lib, amaliyotga tavsiyalar joriy etilgan [1]. Har bir izlanishda o'quv jarayoniga qo'yiluvchi turli talablarning bajarilishiga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan bo'lib, ular samaradorlik kontekstida umumlashsa-da, fanlar, ta'lim shakllari miqyosida xususiy tavsiflarga egadir. Biz olib borayotgan tadqiqotda sifat o'lchovi inson va texnika resurslaridan oqilona foydalanishni baholashga mo'ljallandi.

O'quv muhitining samaradorligini baholashning yangi tushunchasi sifatida rentabellik iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, biznes sohalariga nisbatan inson omili ustuvorligiga asoslanadi.

Rentabellik (nemischadan "rentabel" – daromadli, foydali) – korxona yoki tadbirkorlikning daromaddorligi, samaradorligi, mikroiqtsodiyotda iqtisodiy faoliyatning

samaradorligini baholashda qo'llaniladigan tushuncha sifatida iste'molda foydalaniladi. Ya'ni, rentabellik korxona yoki tadbirkorlik faoliyatining moliyaviy natijalarini baholashda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichdir. Rentabellik biror harakatdan foyda olib ishlashning qiyosiy, ya'ni sarf-xarajatlarga nisbatan aniqlanadigan ko'rsatkichi bo'lib, raqamli natijalar bilan ifodalanadi. Odatda bajarilgan ish harakatlari, ketgan energiya quvvati natijalar qo'lga kiritilgan paytgacha ketgan vaqt sarfi qiyoslangan holda samaradorlik baholanadi.

Ta'lim jarayonida bu tushunchani qo'llashga ehtiyoj, asosan, ta'lim muassasasi jozibadorligini oshirish uchun qanday parametrlar bo'yicha ish tashkil etish kerak? – degan savolning yechimini topish jarayonida yuzaga keldi.

Bu tushunchaning iqtisodiyot sohasidagi ahamiyati aniqlangandan so'ng, ta'lim xizmatlarini klasterizatsiyasida ham to'laqonli va haqli o'rinni egallashi lozim bo'lgan kategoriya darajasida joriylanishi mumkin degan xulosaga kelindi. Shu sababli sifat, imij yoki jozibadorlik kabi tavsiflarga qo'shimcha ravishda, ta'lim-tarbiya amaliyotiga mutlaqo boshqacha ta'rif qo'llanilishi mumkin - rentabellik. Rentabellik eng avvalo, sifatli kadr orqali amalga oshadi. Chunki hozirgi vaqtda ta'lim xizmatlari diversifikatsiyasi kuchaygan davrda pedagoglardan nafaqat ixtisoslik darajalari, balki mutaxassisning raqobatbardoshligini oshiradigan muayyan kasbiy muhim sifatlar-yangi texnologik vositalarni o'zlashtirish va qo'shimcha ixtisoslikni egallash ko'nikmasi hamda kasbiy mobillik malakalari talab etilmoqda.

Mobillik nafaqat o'zgarishlarga moslashishni, balki sharoitni moslashtirgan holda samarali faoliyat yuritishni ham taqozo etmoqda. Chunki ta'lim jarayonida adaptivlik yetakchi omil darajasiga chiqdi. Adaptivlik esa, nafaqat sharoit bilan, balki mazmun bilan, sub'ektlarning akademik va ijtimoiy ehtiyojlari bilan bog'liq ravishda qiyofalanuvchi ta'limiy konsentratsiya hodisasidir.

Adaptiv ta'limni tashkil etish orqali o'quv muhiti rentabelligini oshirish, pirovardida mutaxassis mobilligini ta'minlash biz tomondan ilgari surilgan ilmiy konsepsiyaning markaziy g'oyasi hisoblanadi.

Adaptiv ta'lim deganda ta'lim oluvchilarning individualligi (o'ziga xos psixologik xususiyatlari, axborotni qabul qilish tezligi va uslubi, egallangan bilim darajalari) inobatga olingan o'quv jarayoni hamda ta'lim shakllari, shuningdek, ta'limning xususiy maqsad va vazifalari tushuniladi [2]. Biz amaliyotga o'quv retseptorlari-o'quvchilarning o'ziga xos o'zlashtirish xususiyatlariga ko'ra ta'sir etish yo'llarini joriy etdik.

O'quv retseptorlari aynan ta'lim oluvchining o'zlashtirish uslubi – yo'liga mos akademik diversifikatsiyalardir. Ya'ni, ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish yo'llari-uslublari odatda, quyidagicha turlanadi:

	Vizualistlar – vizual idrokka tayanadigan odam. Atrofimizdagi dunyo haqidagi asosiy ma'lumotlar ko'rish orqali tezroq qabul qilinishi hisobga olinsa, aksariyat odamlar ushbu psixotipga tegishli deb taxmin qilish mutlaqo mantiqiy.
	Audialistlar – axborotni eshitib idrok eta oladi, qayta ishlaydi, foydalanadi.




	Kinestetiklar – axborotni ko‘rish, eshitish va o‘ylashdan ham ko‘proq, tanasi bilan sezgan holda, ya’ni ushlab, hidlab, paypaslab qabul qilishga moslashgan odamdir. U albatta ma’lum harakatlar- tajribalar, qo‘l bilan bajariladigan ishlar orqali axborotni o‘zlashtiradi.
	Diskretlar – mantiqiy tahlil orqali dunyoni biladigan shaxslardir. Ular ham boshqa odamlar kabi ko‘radi, eshitadi, his qiladi, biroq ma’lumotni anglab yetmaguncha va uni o‘z tajribasi bilan taqqoslamaguncha unga ahamiyat bermaydi.

Yuqorida axborotni qabul qilishning har bir odamga alohida xos bo‘lgan holda turkumlanadigan uslublari ta’limning barcha shakllarida inobatga olinishini ta’minlash ham pedagogik, ham tashkiliy, ham psixologik, ham metodik va albatta, gigienik yondashuvlarning integratsiyasiga asoslanadi. Bundan tashqari ergonomik talablar ham har sohaga kabi ta’lim jarayoniga kirib kelgan zamonaviy talablar sirasiga kirdi. Izoh o‘rnida “ergonomika” terminiga manbalarda keltirilgan ta’rifni keltiramiz. Ergonomika – umumiy an’anaviy ma’noda inson tanasining jismoniy va aqliy xususiyatlaridan kelib chiqib, mehnat vazifalarini, ish joylarini, mehnat ob’ektlari va vositalarini, shuningdek,

kompyuter dasturlarini xodimning eng xavfsiz va samarali ishlashi uchun moslashtirish haqidagi fan sanaladi. Demak, ta’limga moslashtirilgan ergonomik talablar aynan ta’lim oluvchining axborotni o‘zlashtirish uslubi hamda salomatlik holati bilan bog‘liq holda inobatga olinadi. Bunda ta’lim oluvchi uchun axborot qaysi shaklda, qanday bezaklarda, qancha hajmda taqdim etilishi ta’lim beruvchi sub’ektlarining zimmasidagi kompleks vazifalarning muhimligi namoyon bo‘ladi. Ya’ni, o‘quv jarayoni bir vaqtning o‘zida har turli uslubni qanchalik qamrab olayotganligi alohida tadqiqqa tortilishi lozim bo‘lgan masala sifatida maydonga chiqdi.

Masalaning sxematik ko‘rinishi quyidagicha tus oldi.



O‘z-o‘zidan o‘quv jarayoniga qo‘yiluvchi 6 ta muhim talab(pedagogik, psixologik, metodik, tashkiliy, gigienik va ergonomik)larning uyg‘unlashuvida o‘zaro akademik konsentratsiya maydoni (impuls) hosil bo‘ladi. Mazkur maydonning didaktik jihatdan to‘yintirilishi uchun axborotni o‘zlashtirish uslubiga mos ta’lim retseptorlari ishga tushirilishi taqozo etiladi [3].

Chirchiq davlat pedagogika universitetining Maxsus pedagogika yo‘nalishida ta’limning aralash shakli joriy etildi va bugungi kunda sinovdan o‘tmoqda. Shuning uchun amaliyotga **klasterli adaptiv metodik tizim** joriy etilgan bo‘lib, e’tibor ta’lim retseptorlariga qaratildi. Natijada aralash ta’lim uchun “**Ochiq ta’lim kontenti**” ning akademik dizayni modellashirildi. Dastlab Maxsus pedagogika yo‘nalishi o‘quv rejasi tarkibidagi modullarning tartibi, uning boshqa modullar bilan o‘zaro to‘ldiruvchi mazmunga egaligi hamda har bir modulning nazariy, amaliy va mustaqil ta’lim uchun soatlar taqsimoti tahlil qilindi. So‘ngra kasbiy faoliyat uchun zaruriy kompetensiyalarni

shakllantiruvchi modullarning o‘quv rejadagi joylashuv tartibi optimallashtirildi. Modullarning yakunida talaba kasbiy amaliyot uchun zarur qanday kompetensiyalarni egallashi o‘rganildi.

O‘zlashtirish uslubi va ta’lim retseptorlari o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?-savoliga o‘quv muhitining didaktik ta’minlanganligi bilan uzviylikda javob beriladi. Ta’lim retseptorlariga o‘quv materiallari, vositalari hamda baholash instrumentlari kiradi.

Mazkur parametrlar bo‘lajak mutaxassisning kasbiy amaliyotga tayyorligini baholash imkoniyatini beradi. Kasbiy amaliyotga maqsadli va motivatsion tayyor bo‘lishga talabalarni yo‘naltirish ehtiyojlar va qiziqishlar hamda maqsadlarga asoslanadi. Bunda majburlash, baho bilan qo‘rqitish kabilar o‘z-o‘zidan barham topadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘quv muhiti o‘lchamli baholash parametrlariga ega bo‘lishi lozim bo‘lgan davrda, ta’lim oluvchining ehtiyoji va ta’lim beruvchining kasbiy mobilligi muhim omildir.